



TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2023- YIL YANVAR - APREL
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Sanoat statistikasi
boshqarmasi
Tel.: 71-202-80-46

Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

(2023- yil yanvar - aprel oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar - aprel oylarida shahar korxonalarini tomonidan 32,1 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar - aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 104,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (78,8 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 19,0 trln. so'mni tashkil etdi.





B – Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C – Ishlab chiqaradigan sanoat D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 7,1 % ga, tog'kon sanoati va ochiq konlarda ishlash - 2,0 % o'sishi kuzatildi. Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 50,3 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 12,9 % ga pasayish kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar - aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,7 trln. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 15,3 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,
(yanvar - aprel oylarida, % da)



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Gaz kondensati




Tabiiy gaz



Neft



Shagʻal



Chaqiq tosh




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar - aprel	2023- yil yanvar - aprel	Farqi +/-
Neft, ming t.	210,0	226,1	16,1
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	12 113,4	11 100,7	-1 012,7
Gaz kondensati, ming t.	258,1	225,5	-32,6
Chaqiq tosh ming t.	34,1	24,0	-10,1


Shagʻal t.

Ishlab chiqaradigan sanoat



2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 25,3 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 78,8 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,
(yanvar - aprel oylarida, % da)**



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 8,1 % ni (2022- yilning yanvar - aprel oylarida – 10,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 23,3 % (22,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 28,7 % (28,9 %) va quyi texnologiyalisi – 39,9 % (38,1%)ni tashkil etdi.





Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalari ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 24,6 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 120,7 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 12,0 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,2 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,3 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,6 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,6 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,6 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati


2023- yilning yanvar - aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 5306,9 tonna makaron va shunga o'xshash un mahsulotlari (27,7 % ga oshgan), 10,3 ming tonna mis sim (57,9 %), 524,7 tonna osh tuzi (74,9 % ga oshgan) hamda 5,7 ming tonna mashina yoki qo'lda to'qilgan trikotaj matolari (91,0 %) ishlab chiqarilganligi kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



O'simlik yog'i (tozalangan)	Margarin va yormalar	Yumshoq bug'doy va spelta uni
-----------------------------	----------------------	-------------------------------



Pivo	Aroq	Uzum vinosi
------	------	-------------



Tamaki mahsulotlari	Paxta kalavasi
---------------------	----------------



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar - aprel	2023- yil yanvar - aprel	Farqi +/-
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming tonna.	10,2	49,5	39,3
Paxta kalavasi, ming tonna.	12,6	11,3	-1,3
Margarin va yormalar tonna.	1 477,0	420,5	-1 056,5
Pivo – mln litr	22,8	22,0	-0,8
Traktorlar - dona	73,0	30,0	-43,0
Sovutgich va muzlatgichlar - ming dona	143,2	175,5	32,3
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo‘yoqlar va laklar, t.	4 774,0	4 867,0	93,0
Tamaki mahsulotlari, mln. dona	685,6	373,3	-312,3

Metallurgiya sanoati

(yanvar - aprel)



FHI
% da



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-aprel oylarida metallurgiya sanoati ulushi 10,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 24,8 ga ko'paygan bo'lsa, 2023 yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 15,2 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 114,2 % va ishlab chiqarish hajmi 3 849,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

(yanvar - aprel oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-aprel oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 9,4 % ga ko'paygan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 66,2 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 669,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



FHI
% da




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar - aprel oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 136,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,9 %, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 7,7 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 3505,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




FHI
% da



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar - aprel oylarida)

FHI
% da



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 7,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 24,2 % ga oshgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar - aprel oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 99,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2399,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.


To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar - aprel oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 122,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar - aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 15,3 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1478,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

FHI
% da




Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar - aprel oylarida)



FHI
% da



2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 85,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,0 % ni, fizik hajm indeksi 125,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 503,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish


(yanvar - aprel oylarida)

2022- yilning yanvar - aprel oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 112,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9 % ni, fizik hajm indeksi 19,9 % ga ko'paydi, ishlab chiqarish hajmi esa 997,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




FHI
% da



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar - aprel oylarida)




2022 - yilning yanvar - aprel oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 32,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 15,9 % ko'paygan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 80,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

(yanvar - aprel oylarida)

FHI
% da



2022- yilning yanvar - aprel oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirka-malar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 371,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar - aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 31,2 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 120,7 % ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 7898,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


(yanvar - aprel oylarida)

2022- yilning yanvar - aprel oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 124,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar - aprel oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,5 % ni, fizik hajm indeksi 110,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1128,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




FHI
% da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

yanvar - aprel oylarida




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,6 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,0 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar - aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 50,3 % ga kamayganligi kuzatildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar - aprel oylarida, % da)




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	165,5	184,3	18,8

Issiqlik energiyasi, <i>ming gkal</i>	5 115,1	3 937,3	-1177,8
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, mln so'm.	273,5	323,2	49,7

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

yanvar - aprel oylarida



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,3 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar –mart oylarida, % da)




Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	50,2	59,7	9,5
(Xavfli bo'lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna	91,8	114,7	22,9

Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	85,4	113,8	28,4
---	------	-------	------

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo'yicha xizmatlar 24,9 % ga ko'paydi, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 33,3 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 19,0% ga o'shish kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 10,6 trln.so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 99,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 33,0 % ni tashkil etdi.



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 11,8 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 36,7 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrida faoliyat koʻrsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonolari

(2023- yil 1 may holatiga koʻra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 12,2 mingta sanoat korxonolari faoliyat koʻrsatmoqda.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent shahrida 501 ta yangi sanoat korxonolari tashkil etildi.

Sanoat statistikasi boʻlimi

Tel.: (71) 203-88-16

(71) 203-88-16